

O'ZBEK TILI TARAQQIYOTIDA SHARQ TILLARINING O'RNI

Farangiz Abdurahmonova

Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tili lug'at boyligidan o'rinni olgan aksariyat so'zlarning etimologiyasida fors va arab tillarining bemisl o'rni xususida so'z boradi. Chunonchi, ayrim so'zlar va toponimlarning kelib chiqishidagi qiziqarli faktlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: etimologiya, arab tili, fors tili, arabiylar, birikma, toponimika, fe'l boblari, leksikaning boyish manbalari.

Dunyo tillari chamanzorining o'z yoqimli xonishiga, xush ovoziga ega go'zal bulbuli- ona tilimiz desak, mubolag'a bo'lmaydi. Jahondagi tillarning bari o'z grammatikasi, fonetikasi, leksikasi va etimologiyasiga ega bo'lganidek, o'zbek tilining ham shu bugungacha bosib o'tgan o'ziga xos tarixiy yo'li mavjud. Bu yo'l juda qadim zamonlarga, proto til, ya'ni bobo til bo'l mish qadimgi turkiy tilga olib boradi.

Hech qaysi til boshqa tillar bilan aralashib, aloqa qilmasdan, ulardan so'z olmasdan boyiy olmaydi, xuddi shunday o'zbek tili ham o'zga tillar, misol uchun, arab, fors, rus, ingliz, xitoy, turk va tojik tillari bilan munosabatga kirishib, ulardan o'ziga ko'plab yangidan yangi leksemalarni kiritdi. Aslida, til doimo to'xtovsiz ravishda rivojlanib, boyib boradi. Uning boyishi 2 xil usulda amalga oshadi.

1. **Ichki imkoniyat asosida.** Bunda tilning o'z ichidagi imkonlaridan foydalilanadi, ya'ni bu usul a] yangi so'z yasash(dasturchi, tadbirkor, raqamlashtirish); b] shevadan so'z olish(mengzamoq); c] so'z ma'nosini o'zgartirish(sichqoncha, kuchukcha) orqali yuzaga chiqadi.

2. **Tashqi imkoniyat asosida.** Tilning chet tillardan so'z olishi, ya'nikim olinma so'zlar orqali boyish manbasidir. Biz ham ushbu maqolada aynan o'zlashma so'zlarto'g'risida mubohassa yuritamiz.

Ekspertlarning tasdiqlashicha, ma'lum bir tilning rivoji millat va xalqning tarixiga borib taqalar ekan. Darhaqiqat, o'zbek tilidagi evrilishlarni, uning tarixiy tadrijini vatanimiz O'zbekistonning o'tmishi ham tasdiqlab turibdi. Tarixdan ma'lumki, VIII asrda o'l kamizga arablar bostirib kelgan hamda ular o'z madaniyatini, dinini va tilini xalqqa singdirmoqchi bo'lganlar. Shu tariqa tilimizda yangi leksemalar, oldin mavjudbo'lman terminlar paydo bo'lgan va bu so'zlarning deyarli hech biri hozir ham iste'moldan chiqib ketmagan.

Maktab, ta'lif, kitob, kutubxona, muallim so'zlarining kelib chiqishiga, qaysi tildan kirib kelganiga hech qiziqqanmisiz? Ularni sof o'zbekcha so'zlar deb o'ylarsiz, balki. Biroq unday emas, ular arabiylar leksemalardir va ular arab tilidan o'zlashgan.

Arab tili dunyodagi eng murakkab tillardan biri, shuning uchun unda so'zlarning yasalishi ham soddagina emas.” Arab tilida o'zak so'zning lug'aviy ma'noga ega bo'lgan eng kichik va bo'linmas qismidir. So'zlarning o'zagi undosh tovushli birikmadan iborat bo'ladi. Mazkur undosh tovushlar so'z o'zagi qaysi shakl, ya'ni bobga solinishidan qat'i nazar doimo saqlanadi. Boshqacha qilib aytganda, ular

poydevorini tashkil etadi. Lekin shuni ham hisobga olish kerakki, hech qaysi so'z faqato'zak undoshlarining o'zidangina iborat bo'lmaydi. Har bir so'z o'zakdagi uch undoshdan tashqari u yoki bu unli tovushlarni, ba'zan esa qo'shimcha undoshlarning

tarkibi so'zning qaysi bobga tegishli ekani bilan belgilanadi”.(1:307) Xullas, bitta o'zak turli xil so'zlarning yasalish assosi bo'la oladi. Masalan, بـ(yozmoq) fe'l

o'zagidan hozirgi o'zbek adabiy tilida hamda omma orasida muntazam qo'llanadigan quyidagi so'zlarni yasash mumkin: کتاب - kitob, مکتب و - maktub, مکانبہ - maktublar, مکاتب - maktab, مکتابلار - maktablar. Bundan tashqari, علم - عالم bilmoq, o'rganmoq

- fe'l o'zagidan esa علم -ilm, عالم -ma'lum, تعلیم -ta'lim, muallim, عالم - e'lon. Bu kabi **arabiy o'zlashmalar** o'zbek tilida juda ko'plab uchraydi. Arabiy o'zlashmalar arab tilidagina mavjud fe'l boblari bilan chamcharbas bog'liq. Arabtilidan o'zbek tiliga o'tgan aksariyat so'zlar fe'llardan yasalgan. Arab tilidagi fe'llardan yangi so'z yasash uchun, kerakli ma'noni hosil qilish uchun o'ziga xos qolip

- fe'l **boblariga** solib ishlatiladi. Arab tilida jami 15 ta fe'l bobbi mavjud, biroq ularning hammasi ham keng iste'molda emas. Faqat 9 tasi keng qo'llanadi, ya'ni I, II, III, IV, V, VI, VII, VIII, X boblardan yasama so'z hosil qilish ommalashgan. Har bir bobning alohida qolipi bor. Bu qoliplarni ifoda etish uchun ғoydalilanildi. مفعول - qilmoq fe'li negizidan

Bunda ف -o'zakdagi 1-undoshni, ع -2-undoshni, ل -3-undoshni aks ettiradi. Bu undoshlar saqlangan holda fe'lga unlilar, qo'shimcha undoshlar yoxud harakatlar biriktirilib alohida boblar paydo bo'ladi. Misol uchun,

Fe'l bobbi	Masdar qolipi (qisqartirilga ninfinnitiv)	Aniq nisbat sifatdoshi qolipi	Majhul nisbat sifatdoshi qolipi
I bob	Masdar uchun aniq	داعل foil(bajaruvç)	مفعول maf'ul(obyek)

	qolip yo'q	hi)	t)
--	------------	-----	----

Xuddi shu qolipda yasalgan va hozirda o'zbek tili leksikasining so'z xazinasini to'ldirib turgan istilohlar talaygina.

جھل (jahl) - متصور (mansur) - ناصر (nasir) - مجهول (majhul) - جاھل (johil) - مكتوب (maktub) - كاتب (kataba)

Bu birikmalar qisman o'z ma'nosini saqlagan holda o'zlashgan. Masalan, jahl-arabtilida” savodsizlik”, johil –“ bilimsiz, g'ofil inson”, majhul- “noaniqlik” ma'nosini anglatganidek, o'zbek tilida aynan shu ma'noni bermassa ham, shunga yaqin mazmunni bildiradi. Bundan tashqari, she'r, shoir, shuaro, ash'or (شاعر، شعر) (شاعر، شعر) kabi mumtoz g'azallarda ko'p uchraydigan so'zlarning kelib chiqishi ham aynan shu

qidaga, ya'ni fe'l boblariga tayanadi. Bu kabi arabiylar o'zlashmalar nafaqat umumxalqso'zlashuvida, balki xalqning ma'naviy ko'zgusi bo'lgan adabiyotida ham uchraydi.

Misol uchun, g'azal mulkining sultonisi Alisher Navoiy bobomiz “Bu kecha “radiflig‘azali maqtasida shunday yozadi:

Ey Navoiy, har ne **zulmikim** qilib erdi xayol Barchani jonimg'a charxi **zolim** qildi bu kecha.

Ushbu g'azalda qo'llangan *zulm* va *zolim* so'zlarining etimologiyasi juda qiziqarli. Zulm so'zi arab tilidagi ظالم so'zidan olingan bo'lib, “adolatsizlik qilish, jabr qilish, zo'ravonlik qilish “ degan ma'nolarni bildiradi. Zolim so'zi zulmdan yasalgan bo'lib, “zulm qiluvchi, zulmkor, mustabid “ kabi ma'nolarni anglatsa, mazlum esa zulmdan hosil bo'lib, “zulmga uchragan, jabr ko'rgan shaxs” ma'nosini beradi.

Bundan tashqari, mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy “Sab'ayi sayyor” dostonidashunday baytlarni keltiradi:

Bor edi Adanda **jabr** fane Jabr qilmoq fanida safshikane. Dasht-u daryoda lek ahli ubur “**Jobir rahzan**” qilib mashhur.

Ushbu misralarda jabr va Jobir so'zlari ham asosdosh bo'lib, lug'atda jabr so'zi arabcha bo'lib, “zulm, adolatsizlik” ma'nosida, Jobir esa “jabr qiluvchi, zolim”

ma’nosida qo’llangan. Majbur so‘zi ham bu ikki so‘zga o‘zakdosh bo‘lib, majbur “jabr bilan singdirilgan, qilinishi shart bo‘lgan, noiloj” degan ma’noni anglatadi.

Chunonchi, Navoiy bobomiz yana bir g‘azalida shunday o‘tli misralarni qog‘ozgatushirgan:

Layli andin qo‘ydi **Majnun** ko‘ngilda rohat g‘amin

Kim, yo‘q erdi manzil ul vodiya andin pokroq. Boshqa g‘azalida esa:

Junun vodiysig‘a moyil ko‘rarmen jon-u zorimni Tilarmen bir yo‘la buzmoq buzilg‘on ro‘zg‘orimni.

Ushbu jumlalar Navoiy dahosining o‘zbek adabiyoti ganjida naqadar yuksak mavqeegallaganini yaqqol ko‘rsatib turadi. Ushbu baytlarda qo’llangan Majnun va junun so‘zлari arabiy o‘zlashma bo‘lib, junun lug‘atlarda arab tilidan olinib, “jinnilik,

telbalik, aqldan ozgan “ degan ma’noni ifodalaydi, Majnun esa lug‘atlarda - arabcha,“jinni, devona”, istilohiy ma’noda “ishq yo‘lida telba bo‘lgan oshiq” ma’nosini beradi. Navoiy “Layli va Majnun “ dostoni ham muhabbat yo‘lida telba, jinni bo‘lib qolgan Qays haqidadir. Demak, arabiy o‘zlashmalar o‘zbek leksik boyligini rivojlantirishga, yangi so‘zlarning o‘zbek tiliga kirib kelishiga xizmat qilgan ekan.

O‘zbek tilining rivojida arab tilidan tashqari fors tili ham juda katta rol o‘ynagan.

XVasrda o‘z cho‘qqisiga ko’tarilgan mumtoz adabiyot vakillari - ulug’ Movaraunnahr adiblarining aksariyati forsigo‘y bo‘lgani, qolganlari esa hech bo’lmaganda

zullisonaynlik an’anasiga sodiq qolib, forscha she’rlar bitgani ,ayniqsa, “nazm gulistonining andalibi nag’masaroyi” Alisher Navoiy bobomizning forscha she’rlardan tuzilgan “Devoni Fony” to’plami ham fikrimizning yorqin dalilidir. Shuningdek, hozirgi kunda ham fors tilidan olingan so‘zlar xalq orasida keng qo’llaniladi. Ulardan ayrim juda qiziqarli faktlarni keltirib o’tamiz.

Avvalo, o‘zbek tilida mavjud so‘z yasovchi qo’shimchalarga to’xtalsak ,aslida, buqo’shimchalarining ko’pchiligi fors tilida alohida so‘z sifatida ishlatiladi.

-*kash* qo’shimchasi- forscha ‘kashidan”-tortmoq fe’lidan olingan. Undan aravakash,tuyakash, suratkash, paxsakash so‘zлari yasalgan.

-*paz* qo’shimchasi-(forscha “puxtan”-pishirmoq) somsapaz, oshpaz, kabobpaz;

-*boz* qo’shimchasi (“bozidan”- o‘ynamoq) dorboz, kaptarboz, masxaraboz;

-*shunos* (“shunostan”-tanimoq, bilmoq) adabiyotshunos, tilshunos, tuproqshunos;

-*xon* (“xondan”-o‘qimoq) kitobxon, g‘azalkxon, gazetxon;

- do'z ("do'xtan"-tikmoq) do'ppido'z, mahsido'z, etikdo'z kabi so'zlarning yasalishifors tiliga borib taqaladi.

Shuningdek, ba'zi so'zlar shunchaki forscha 2 so'zning qo'shilishidan hosil bo'lgan vahozir ham o'zbek tili so'z boyligining bir qismi bo'lib xizmat qilmoqda. Masalan, *mo'ysafid* so'zi forscha "mo'y"- soqol, "sefid"- oq so'zlarining, *sartarosh* so'zi "sar"- bosh, "taroshidan"- qirmoq fe'lining hozirgi asosi "tarosh" ning, *durban* istilohi "dur"- uzoq,"bin"("didan"-ko'rmoq so'zining hozirgi zamoni)ning birikishidan, *xudbin* so'zi esa "xud"-o'zi,"bin"-ko'rmoqning; *chorva* so'zi esa "chor"-to'rt, "po"-oyoq (tarixiy- etnik jarayonlarda ba'zi fonetik o'zgarishlarga uchragan) birikishidan vujudga kelgan.Dono va nodon so'zining etimologiyasi ham nihoyatda qiziqarli."Donestan"-bilmoq so'ziga "o"-hozirgi zamon sifatdosh qo'shimchasining; bu asosga esa –no inkor bildiruvchi qo'shimchaning qo'shilishi natijasida dono va nodon istilohlari paydo bo'lgan.

Binobarin, hatto ba'zi joy nomlarining kelib chiqishida ham fors tilining hissasi bor. Sariosiyo so'zi forscha "sar"-bosh, "osiyo"-tegirmon so'zlaridan yasalib, tegirmon boshi degan ma'noni ifodalaydi. Butun O'zbekistonga, balki chet eldan keladigan turistlarga ham ma'lum va mashhur Sangardak so'zi ham forscha "sang"-tosh, "gardak"-yumaloq so'zlaridan kelib chiqqan. Denov tumani esa "dehqishloq,"no'v"-yangi so'zlaridan olingan.

Xulosa qilib aytganda,mazkur so'zlarning barchasi arab va fors tillaridano'zbek tiliga aynan olib kirilgan, lekin til sohasining mutaxassislari, ona tili va adabiyot o'qituvchilari hamda shu sohada o'qiyotgan oliy ta'lim muassasalari talabalari bularning etimologiyasini bilsa, nur ustiga a'llo nur bo'lar edi. Filologiya yo'nalishi talabalariga universitetda Sharq tillari fanining o'tilishidan asosiy maqsadham shu - o'zbek tili tarixini, uning lug'at boyligidan o'rinn olgan olinma so'zlarning etimologiyasini o'rgatishdir. Zero, bularni o'rganish orqali mumtoz adabiyot, g'azal tahlili va navoiyshunoslik kabi fanlarni oson o'zlashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fors tili.N. Murodov.Termiz davlat universiteti NMM nashriyoti.Termiz-2022.
2. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami.N.Erkaboyeva.Yosh kuch.Toshkent-2021
3. O'zbek tilining izohli lug'ati.I-V jildlar.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.Toshkent-2020.